

9-SINFLARDA “HUJAYRALAR EVOLUTSIYASI” MAVZUSINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLAR VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Olimova Muxlisa Odiljon qizi

Odiljonolimov7802@gmail.com

Odashboyeva Odina Nuriddin qizi

ADPI tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo’nalishi talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14223301>

Annotatsiya: Bugungi zamonaviy ta’limni noan’anaviy ya’ni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Dars jarayonida ushbu metodlardan foydalanish o’quvchilarga dars mazmunini yana ham tushunarli va oson yetkazib berishga yordam beradi. Ushbu maqolada 9-sinflarda “Hujayralar evolutsiyasi” mavzusini o’qitishda interfaol metodlar va ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda darsni tashkil etish, o’quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning biologiya faniga bo’lgan qiziqishlarini orttirish va darsning samaradorligini oshirish yo’llari haqida ma’lumot berilgan.


Kalit so’zlar: interfaol metod, noan’anaviy metodlar, dars, “Simbioz gipotezasi”, “invaginatsiya gipoteza”, “ko’p genomli gipoteza”, “Venn diagrammasi”.

Bugungi kunda har bir o’qituvchi darslarni qiziqarli va o’quvchilar uchun yana ham tushunarli tashkil etishda turli xil noan’anaviy interfaol usullardan foylanib kelishmoqda. Texnik vositalar va noan’anaviy usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Noan’avaniy usullardan foydalanish bizga o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi muloqotni shakllantirish ko’nikmalarini oshirishga ham yordam beradi. Noan’anaviy usullar norasmiy bahs-munozaralar o’tkazish, o’quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko’pligi, o’quvchilar tashabbus ko’rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo’lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo’lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o’ziga xos ahamiyatga ega. Tashkil qilayotgan darslarimizga turli xil ko’rgazmalar, O’simlik hamda hayvon kolleksiyalar, turli xil video darslar, qiziqarli multimedia vositalaridan foydalanish ham bizga darslarni sifatli tashkil qilishga yordam beradi. Bu vositalar orqali biz o’quvchilar diqqatini o’zimizga qaratib olishimiz oson bo’ladi. Quyida eng ilg’or pedagogik noan’anaviy usullardan namuna keltirib, ularning hamiyati va afzalliklarini tahlil qilamiz.

Darsni boshlagandan so’ng birinchi navbatda o’quvchilarga mavzu to’g’risida qisqacha ma’lumot beriladi. Mavzu yanada tushunarli bo’lishi va o’quvchilarda tog’ri tushuncha hosil qilish uchun taqdimotdan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Birinchi – Baliq skeleti metodi



Strategiya: Bir varaq oq qog'ozda (vatman yoki A-3 varag'i) baliq skeleti chiziladi (boshi, kemirchagi, qovurg'alari).

Biz ushbu "Baliq metodi" dan o'quvchilar bilan mavzuni muhokama qilishda va Muammoli vaziyat yaratishda foydalanamiz. Ushbu metod "Hujayralar evolutsiyasi" mavzusu uchun juda ham qo'l keladi. Biz o'quvchilarni uchta guruhga bo'lamiz va har bir guruh o'zlariga berilgan gipotezani boshqa guruhlar bilan muhokama qiladi. Bu usul bizga o'quvchilarni yaxshiroq o'rganishimizga, ularning muloqot, fikrlarini erkin ifoda etish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Yuqoridagi baliq suyagining yuqorisiga muammo ifodalanishi, pastidagiga esa - ushbu muammo mavjudligini (yoki uni hal qilish yo'llari, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga qarab) isbotlovchi faktlar yozib qo'yiladi.

Foydalanish doiralari; Tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta'lim berish uslubidan foydalanganda.

Afzalliklari. Ushbu sxema muammolarning o'zaro bog'liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi.

Qiyinchiliklar. Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelish mumkin.

Ikkinchi – Akvarium metodi

Bunda 5-6 nafar ishtirokchilar rahbar bilan birga doira shakli bo'ylab o'tiradilar. Ular – «baliqlar». Ularning atrofiga guruhning qolgan ishtirokchilari o'tiradilar (yoki turadilar). Ular – «baliq ovchilari». Ichki doira a'zolari («baliqlar») o'qituvchi taklif qilgan savolni faol muhokama qiladilar. "Baliq ovchilari" esa kuzatib turadilar va savolni muhokama qilayotgan biron o'quvchining fikri ularni qiziqtirib qolganda jarayonga kirishadilar: qo'shimcha qiladilar, savol beradilar, aniqlashtiradilar. SHunda «baliq ovchisi» fikri uni qiziqtirib qolgan «baliq»ning yoniga turib olishi kerak. Bir muammoning (masalaning) muhokamasi tugaganidan so'ng ishtirokchilar joylari bilan almashadilar (doiradan tashqarida turganlar endi doira bo'ylab o'tiradilar). Barcha ishtirokchilar doirada o'tirishlari maqsadga muvofiqdir.


Foydalanish doiralari. Tabiiy va aniq fanlarni o'rganish jarayonlarida qo'llaniladi.

Afzalliklari. Ishtirokchilarga norasmiy sharoitda fikr almashishga, berilgan muammoni (masalani) hal qilish bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon etishga imkon yaratadi. Muhokama jarayoniga erkin qo'shilish va undan chiqib ketishga imkon beradi. Tahliliy fikrlash, e'tibor jamlash va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Nutqni va teskari aloqa texnikasini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari. Muammoni muhokama qilishda barcha o'quvchilar faol ishtirok etish jarayonida bahs-munozalar, nizolar yuzaga kelishi mumkin. SHu bois o'qituvchi yaxshi tayyorlanishi va kuchli qarama-qarshiliklar paydo bo'lishiga yo'l bermaydigan uslublarni bilishi lozim.

Uchinchi – Venn diogrammasi

O'quvchilar eukariot hujatralarning kelib chiqishi to'g'risidagi gipotezalarni venn diagrammasiga joylashtirishlari kerak. Bunda o'quvchilar simbioz gipotezasi, invaginatsiya gipotezasi va ko'p genomli gipotezalarining o'ziga xos xususiyatlarini, nazariyalarni alohidadan ustunga yozishadi. Uchchala gipoteza uchun umumiy tushunchalarni esa o'rta ustunga yozadilar.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, barcha biologiya fani o'qituvchilari darsni tashkil etishda yuqoridagi kabi interfaol metodlar va texnologiyalardan foydalansa, o'tadigan darsining samaradorligi oshadi va o'quvchilarning qiziqishi yuqori darajada bo'ladi. Eng muhimi noan'anaviy usullarda mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr mulohazalarini shakillantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kabi kutilgan natijalarga erishiladi.

References:

1. G.Yo'ldoshev., S.A.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari" Toshkent. "O'qituvchi" 2004 y.
2. N.N. Azizxo'jaeva. "Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat" Toshkent. "AvtoNashr"
3. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quvuslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.